VIII. TASHQI IQTISODIY ALOQALAR

2022- yil yanvar-dekabr oylarida tashqi savdo aylanmasi 5 592,8 mln. AQSh dollarini va o‘zgarish sur’ati 105,3 %ni, jumladan 2 051,8 mln. AQSh dollarini – eksport operatsiyalari yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 102,0 %ni, 3541,0 mln. AQSh dollarini – import operatsiyalari yoki o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 107,3 %ni tashkil etdi.

2022- yil yanvar-dekabr oylarida MDH va boshqa davlatlar kesimida viloyatning tashqi savdo aylanmasi *(mln. AQSh dollari)*

	yanvar-dekabr		*2021- yil yanvar-dekabrga nisbatan % hisobida*
	2021- yil	*2022- yil*	
Tashqi savdo aylanmasi	**5 311,3**	**5 592,8**	**105,3**
shu jumladan:			
MDH davlatlari	2 526,7	2 648,1	104,8
boshqa davlatlar	2 784,6	2 944,7	105,8
Eksport	**2 011,1**	**2 051,8**	**102,0**
shu jumladan:			
MDH davlatlari	694,1	833,8	120,1
boshqa davlatlar	1 317,0	1 218,0	92,5
Import	**3 300,2**	**3 541,0**	**107,3**
shu jumladan:			
MDH davlatlari	1 832,6	1 814,2	99,0
boshqa davlatlar	1 467,6	1 726,8	117,7

Viloyat tashqi savdo aylanmasida
MDH va boshqa davlatlarning ulushi, *%da*

2022- yil yanvar-dekabr



	Savdo aylanmasi	Eksport	Import
MDH davlatlari	47,3	40,6	51,2
Boshqa davlatlar	52,7	59,4	48,8

2021- yil yanvar-dekabr



	Savdo aylanmasi	Eksport	Import
MDH davlatlari	47,6	34,5	55,5
Boshqa davlatlar	52,4	65,5	44,5

2022- yil yanvar-dekabr oylarida
viloyat eksport-importi tarkibi

	Eksport va importning umumiy hajmidagi ulushi, % hisobida		*2021- yil yanvar-dekabrga nisbatan % hisobida*
	2021- yil yanvar-dekabr	*2022- yil yanvar-dekabr*	
Eksport tarkibi	**100,0**	**100,0**	**102,0**
paxta tolasi	0,01	0,02	19,7
oziq-ovqat mahsulotlari	11,7	13,0	112,7
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	5,2	5,3	104,6
energiya manbalari va neft mahsulotlari	0,03	0,2	6,3 m.
qora va rangli metallar	57,4	52,5	93,4
mashina va uskunalar	1,8	3,2	175,1
xizmatlar	0,6	0,5	88,0
boshqalar	23,3	25,3	111,3
Import tarkibi	**100,0**	**100,0**	**107,3**
oziq-ovqat mahsulotlari	17,4	22,2	136,9
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	10,3	11,8	122,1
energiya manbalari va neft mahsulotlari	2,5	4,0	174,2
qora va rangli metallar	11,4	10,1	94,9
mashina va uskunalar	29,2	26,8	98,3
xizmatlar	1,0	0,2	26,1
boshqalar	28,2	24,9	94,9

Eksport tarkibida tovarlar 99,5 % ulushiga ega bo‘lib, bular asosan qora va rangli metallar (52,5 %), boshqa turdagi tovarlar (25,4 %), oziq-ovqat mahsulotlari (13,0 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (5,3 %), mashina va uskunalar (3,2 %) shuningdek, xizmatlar (0,5 %) guruhlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi (*mln. AQSh dollari*)

2021- yil
yanvar-dekabr



2022- yil
yanvar-dekabr



Paxta tolasi

Oziq-ovqat mahsulotlari

Kimyo mahsulotlari va buyumlari

Энергия манбаалари ва нефт маҳсулотлари

Mashina va asbob-uskunalar

Mashina va asbob-uskunalar

Xizmatlar

Boshqalar

Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob uskunalar (26,7 %), oziq-ovqat mahsulotlari (22,2 %) qora va rangli metallar (10,1 %), hamda boshqa mahsulotlar (24,9 %) guruhlari hisobiga to‘g‘ri keldi.

Tovar va xizmatlar importi tarkibi

(*mln. AQSh dollari*)



2022- yil yanvar-dekabr oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida katta ulushga ega bo‘lgan davlatlar bilan tovar aylanmasi

	Viloyat tovar aylanmasida ulushi, % hisobida	*2021- yil yanvar-dekabrga nisbatan % hisobida*
Rossiya Federatsiyasi	23,4	114,3
Xitoy	20,1	143,5
Qozog‘iston	17,1	102,1
Turkiya	13,6	80,9
Braziliya	4,8	149,3
Tojikiston	1,9	125,5
Belarus	1,8	98,2
Germaniya	1,6	119,9
Afg‘oniston	1,3	98,5
Qirg‘iz Respublikasi	1,2	112,3
Italiya	1,2	113,9
Koreya Respublikasi	0,8	32,5
Singapur	0,8	145,0
Niderlandiya	0,8	88,0
Ukraina	0,7	27,1
Litva	0,7	71,8
Ozarbayjon	0,6	134,7
Hindiston	0,6	139,1

Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Qozog‘izton, Turkiya, Braziliya, Tojikiston va Belarus davlatlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 82,7 %ini tashkil qiladi. Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Qozog‘izton, Turkiya, Braziliya, Tojikiston va Belarus davlatlariga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar, energiya manbalari va neft mahsulotlari hamda oziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan iborat ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

2022- yil yanvar-dekabr oylarida MDH va boshqa xorij davlatlari bilan amalga oshirilgan tashqi savdo tarkibi %da

Eksport



Import



Viloyatda tashqi savdoni qo‘llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2022- yil yanvar-dekabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 47,3 %ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 4,8 %ga ko‘paydi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning yanvar-dektabr oylarida 52,7 %ni tashkil qildi (2021- yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 52,4 %ga teng bo‘lgan).

Toshkent viloyatining kichik biznes korxonalarining tashqi savdo aylanmasi
(mln. AQSh dollari)



So‘nggi yillarda Hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilinishi, eksportni qo‘llab-quvvatlash, import o‘rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida viloyat tashqi savdo aylanmasida kichik biznes korxonalarining ulushi oshib bormoqda.

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

2022- yil yanvar-dekabr oylarida jami 240,0 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 168,9 mln. AQSh dollariga eksport qilindi (o‘sish sur’ati – 108,2 %). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida 124,4 ming tonnadan ko‘proq sabzavotlar 78,7 mln. AQSh dollariga yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan qiymatda 17,9 %ga kamaygan.

Shuningdek, 37,7 ming tonna meva va rezavorlar 38,8 mln. AQSh dollarga eksport qilingan bo‘lib, eksport hajmi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 111,4 %ni tashkil etdi.

2022- yil yanvar-dekabr,
mln. AQSh dollari

Meva va rezavorlar
37,7 ming tonna
38,8 mln. AQSH dollari

Uzum
40,7 ming tonna
39,3 mln. AQSH dollari

Yeryon-g‘oqlar
2,7 ming tonna
3,7 mln. AQSH dollari

Sabzavotlar
124,4 ming tonna
78,7 mln. AQSH dollari

Shuni aytib o‘tish joizki, viloyatning eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o‘zlashtirish natijasida, meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalar eksport qilinmoqda. Jumladan, 2022- yil yanvar-dekabr oylarida meva-rezavorlar hamda sabzavotlar eksport hajmi 117,5 mln. AQSh dollariga teng bo‘lib, umumiy eksportdagi ulushi 5,7 %ni tashkil etdi.